

YANGI O‘ZBEKISTON KINEMATOGRAFIYASI

Qahhorov Muhammadali Xolbo‘ta o‘g‘li*O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning kinematografiyasi oldiga qo‘yilgan talablar va ularga yechim bo‘ladigan masalalar haqida so‘z yuritilib, xukumat rahbarining bu haqidagi tegishli qarorlari va ularning ijrosi borasida taxliliy fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qaror, farmon, kinematografiya, kino san’ati, milliy kino, film.

Аннотация: В этой статье речь идет о требованиях, предъявляемых к кинематографии Нового Узбекистана, и вопросах, которые могут быть решены, а также приведены соответствующие постановления главы правительства об этом и аналитические мнения об их исполнении.

Ключевые слова: постановление, указ, кинематография, киноискусство, национальное кино, фильм.

Annotation: This article discusses the requirements for the cinematography of New Uzbekistan and the issues that need to be addressed, and provides analytical opinions on the relevant decisions of the head of government and their implementation.

Keywords: decree, decree, cinematography, cinematography, national cinema, film.

O‘zbek badiiy kinosi shakllanib kelayotgan davrda (1927 yilda) Fitrat o‘zining “San’atning manbai (kelib chikishi)” nomli maqolasida: “Kino ham teatr singari oltita ajoyib san’at: raqs, musiqa, adabiyot, rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morlikdan kelib chiqqan: yoki boshqacha qilib aytganda: kino oltita qadimiy ajoyib san’atning samarali mevasidir”¹⁹, – deb yozgan edi. Barchaga ma’lumki, yangilanayotgan O‘zbekistonda har bir soha, har bir tarmoq jadal rivojlanmoqda. Shu boisdan davlat rahbarining sohalar kesimida qaror, farmon hamda farmoyishlari ishlab chiqilmoqda. 2022-yil 29-yanvar kuni O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni bilan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilgan edi. Strategiyaning asosiy maqsadi jamiyatda inson qadrini ulug‘lash hamda inson erkini ta’minlash kabi muhim g‘oyalardan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish va yuqorida keltirilgan ezgu g‘oyalarni jamiyatga targ‘ib etish uchun, sohalar ichida kinematografiya alohida ajralib turadi. O‘zbekiston respublikasi davlat rahbarining 2024-yil 15-mayda Kinochilar saroyiga tashrifida kino san’ati haqida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tdi: “- So‘nggi yillarda milliy kinomiz qayta “uyg‘ondi”, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Yuqori saviyali, zamonaviy sifatli filmlar paydo bo‘ldi. Buning uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga,

¹⁹ X.Boltaboyev. "Fitrat va san'at nazariyasi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi", 1998-yil

kinematografiyani rivojlantirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak, degan savol meni o‘ylantiradi. Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo‘lsak, xalqimizning milliy g‘ururini ko‘tarmoqchi bo‘lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak”²⁰. Darhaqiqat, milliy kino san’ati uzoq ijodiy inqiroz daviridan so‘ng, yana milliy va ruhiyatni tarannum etuvchi ko‘plab filmlarni sur’atga olib kelmoqda. 2018-2025-yillar davomida Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi hamda “O‘zbekfilm” kinostudiyasi buyurtmasi asosida bir nechta badiiy hamda hujjatli filmlar xalqimizga namoyish etildi. Jumladan, so‘nggi yillarda suratga olingan “Issiq non” (Umid Hamdamov, 2019), “Ilhaq” (Jahongir Ahmedov, 2020), “Ibrat” (Jahongir Qosimov, 2020), “Avloniy” (Muzaffar Erkinov, 2020), “Meros” (Hilol Nasimov, 2021), “Ayol qismati” (Dilmurod Masaidov, 2022), “O‘zbek qizi” (Akbar Bekturdiyev, 2023), “Abdulla Oripov” (Muzaffar Erkinov, 2023), “Osmondagi bolalar” (Zulfiqor Musoqov, 2023), “Bahodir Yalangto‘sh” (Jahongir Ahmedov, 2024), “Uch qahramon” (Shoxrux Rasulov, 2024), “Pandemiya” (Abutolib Adamqulov, 2024), “Sevdo” (Hilol Nasimov, 2024), “Adolat” (Ilhom Muhammadibragimov, 2025) kabi filmlar onalar matonati, ayollar sadoqati, o‘smirlarning hayoti, xalqning sabr va oqibati kabi ko‘plab mavzularda ekran yuzini ko‘rdi. Ushbu filmlar nafaqat o‘zbek milliy kinosida, qolaversa, jahon kino ekranlarida ham namoyish etildi hamda e’tirof etildi. Tomoshabin filmlarni ko‘rmasdanoq ularda milliy ruhiyat aks etganini payqaydi. Chunki ba’zi filmlar nomining o‘zidanoq, film nima haqida ekanligini anglash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, “O‘zbek qizi”, “Ilhaq”, “Issiq non” kabi filmlarda o‘zbek millatining xalqparvar, o‘zligini va qadriyatlarini hurmat qiluvchi qahramonlar tasvirlangan. Ushbu filmlarda goho Shuhrat Abbosovning “Sen yetim emassan”, “Toshkent – non shahri” kabi kinolaridagi qaysidir elementlarini ko‘rish mumkin. Mamlakatda davlat rahbari e’tibor qaratgan hamda uning taraqqiyoti uchun hukumat tomonidan moddiy va ma’naviy ko‘mak berilgan soha, albatta rivojlanadi, yangi bosqichlarga chiqadi. Yuqorida sanab o‘tilgan filmlarda ham davlat rahbarining alohida topshirig‘i bilan sur’atga olingan “Abdulla Oripov”, “Ibrat”, “Avloniy”, “Bahodir Yalangto‘sh” kabi hayotiy obrazlarni qahramon darajasiga olib chiqa olgan kartinalar bor. Prezident tashabbusi bilan suratga olingan ushbu filmlar orqali rejissyorlar jamiyatda milliy ruhiyatni oshirish, sog‘lom fikr hamda kino sohasida sog‘lom raqobatni shakllantirish, inson ma’naviyatiga ta’sir etuvchi ezgu mafkuralarni jamiyatga to‘laonli va to‘g‘ri yetkazishni eng ustuvor maqsad deb belgilagan. Shu maqsadda madaniyat va san’at sohasining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi ta’sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ham: “Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha maxsus dasturlar ijrosi ta’minlanadi. Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantirish, xalq

²⁰ <https://kun.uz/>

hunarmandchiligini qo‘llab-quvvatlashga doir aniq va samarali ishlar olib boriladi”²¹, – deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu dasturlar ijrosini kinematografiya sohasida so‘nggi yillarda suratga olinayotgan filmlarda ko‘rish mumkin. Bu katta loyihalarni amalga oshirishda Kinematografiya agentligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Bosh prokuratura bilan hamkorlikda, uchta “Uch qahramon”, “Sevdo” hamda “Adolat” filmlarining namoyishlarini o‘tkazildi.

Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda suratga olingan “Uch qahramon” filmida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashishda o‘z hissasini qo‘shgan uch nafar ichki ishlar xodimining mashaqqatli va beminnat xizmatlari haqida hikoya qilinadi. Filmning asosiy g‘oyasida inson o‘z vatanini sevishi, qanday kasbda bo‘lishiga qaramay uning kelajagiga befarq bo‘lmasligi va u uchun sadoqat bilan xizmat qilishi olg‘a surilgan. Yoki bo‘lmasam, Bosh prokuratura bilan hamkorlikda suratga olingan “Sevdo” filmida bosh g‘oya jamiyatda uchrab turadigan g‘arazli kimsalarning kirdikorlarini fosh qilish haqidadir. Shu bilan birga filmida prokuratura xodimlarining so‘nggi yillardagi mashaqqatli va qiyinchiliklarga boy faoliyati ochib berilgan. Filmning oxiriga qadar tomoshabin aybdorni topish uchun turli kishilarni gumondor sifatida ko‘radi. Bu filmning detektiv janriga yaqinlashtiradi. “Adolat” filmi ham Bosh prokuratura bilan hamkorlikda, 2025-yilning boshida premyera qilindi. Ushbu filmida o‘z ishiga sadoqatli va professionalizmi, kishilar taqdiriga jonkuyarlik bilan yondashuvchan huquq-tartibot xodimlari haqida hikoya qilinadi. Shu bilan birga filmida o‘zbek prokuror ayoli orqali uning matonatini, sabr-toqatini hamda oilaparvarligini ko‘rsatib bergan. Filmida doimo qizi va oilasi uchun qayg‘uradi.

O‘zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov o‘z nutqlaridan birida: “XXI asrda dunyoni madaniyat va ma‘naviyat qutqaradi...”²², — deb ta‘kidlagan edi. Haqiqatdan ham, huquqshunos (tergovchi) bo‘lish qiyin, ammo, san‘atda huquqshunos (tergovchi) bo‘lish ancha mushkul. Ular insonlar qotillarini emas, insonlar ma‘naviyatining qotillarini fosh etishadi. Shu boisdan davlat rahbarining bu sohaga katta e‘tibor berayotgani bejizga emas. Ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni bilan, 2023-yil 12-sentyabrdan kuchga kirgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham madaniyat va san‘at sohasining aynan kinematografiya yo‘nalishiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ya‘ni:

1. Dunyodagi eng ommabop 10 ta internet platformasiga milliy filmlarni joylashtirish.
2. 2024 – 2030-yillarda 50 ta kinoloyihadan iborat davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosini aks

²¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 b.

²² O‘zbekiston san‘ati (1991-2001 yillar) /. — “Sharq”, 2001. 240 b. — (O‘zbekiston respublikasi 10 yilligiga bag‘ishlanadi)

ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarish hamda xorijda, xususan kinofestivallar va telekanallarda namoyish etish.

3. Milliy qahramonlar haqida 10 ta multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish.

Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo’yicha shu kabi islohotlar aniq dasturlar orqali belgilab qo’yilgan. Buning ijrosi esa, allaqachon amalga oshmoqda. Prezident tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Tirik tarix” turkumidagi filmlar loyihalarining taqdimoti bo’lib o’tdi. Ushbu loyihalarda eng qadimgi o’tmishdan tortib, yaqin tarixgacha bo’lgan juda katta davrni qamrab olingan. Loyihada chet ellik hamkorlar, kino san’ati ustalari ham ishtirok etishi rejalashtirilgan. Davlat rahbari soha mutasaddilariga: “Tariximizni dunyoga kino yordamida tanitishimiz kerak”, - deya ta’kidladi. Shu sababdan, “Buyuk bobolarim bolaligi” turkumi bilan, “Mahmud Qoshg’ariy”, “Yusuf Xos Hojib”, “Abu Ali Ibn Sino”, “Ahmad Al-Farg’oniy”, “Musso Al-Xorazmiy” kabi ulug’ olim va mutafakkirlar hayoti haqidagi animatsion filmlarini ishlab chiqarish uchun allaqachon ijodiy guruhlar ishga tushgan. Bu haqiqatdan ham quvonarli hol. Bu islohotlar faqat va faqat Yangi O‘zbekiston orzusini amalga oshirish uchun qaratilgan. Bu orzu esa, mana shu jamiyatda inson qadrini ulug’lash, har bir sohada adolatli va shaffof tarzda ish olib borish hamda O‘zbekiston nomini jahon maydoniga olib chiqish va tanitishdir. Buning uchun tarixni o‘rganib anglagan holda, bugun bor kuch bilan, bor imkoniyatlardan to‘laonli va unumli foydalanib, harakat qilish hamda kelajakka dadil qadam qo‘yish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 b.
2. O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar) /.— “Sharq”, 2001. 240 b. — (O‘zbekiston respublikasi 10 yilligiga bag‘ishlanadi)
3. X.Boltaboyev. “Fitrat va san’at nazariyasi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi”, 1998-yil